




**ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW**

journal homepage:  
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



## THE ROLE AND IMPORTANCE OF THINK TANKS IN MAKING FOREIGN POLITICAL DECISIONS (IN THE CASE OF THE USA)

**Nasiba R. Sanoyeva**

*Master's student*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [nasibasanayeva1511@gmail.com](mailto:nasibasanayeva1511@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Think tanks, political decisions, council on foreign relations

**Received:** 11.05.23

**Accepted:** 13.05.23

**Published:** 15.05.23

**Abstract:** The positive and negative sides of the decisions prepared on the basis of their materials are given a general understanding of the work of think tanks. Also, the initiatives of these centers to solve important problems are studied.

Researching the role of intellectual centers in solving transnational problems, being able to see the goals and malicious intentions hidden under every piece of information, studying the issues of forming the social consciousness of the population under one ideology in order to create immunity against disinformation.

To reveal the need to rely on deep analytical activities of think tanks in matters of political and economic management.

## TASHQI SIYOSIY QARORLARNI QABUL QILISHDA TAHLILIIY MARKAZLARNING O'RNI VA AHAMYATI (AQSH MISOLIDA)

**Nasiba R. Sanoyeva**

*Magistratura talabasi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [nasibasanayeva1511@gmail.com](mailto:nasibasanayeva1511@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Aqliy markazlar, siyosiy qarorlar, tashqi aloqalar bo'yicha kengash

**Annotatsiya:** Aqliy markazlarning ishlash faoliyati haqida umumiy tushuncha berib, ularning materiallari asosida tayorlangan qarolarning ijobiy va salbiy tomonlari yoritiladi. Shuningdek bu

markazlarning muhim muammolarni hal etishdagi tashabbuslari o'rganiladi.

Davlatlar o'tasidagi muammolarni hal etishda aqliy markazlarning o'mini tadqiq etish, har bir informatsiya ostida yashiringan maqsadlar, va g'arazli niyatlarni ko'ra olish, dezinformatsiyaga qarshi immunitetni hosil qilish uchun aholining ijtimoiy ongini bir mafkura ostida shakllantirish masalalarini o'rganish.

Siyosiy va iqtisodiy boshqaruvin masalalarida Aqliy markazlarning chuqur tahliliy faoliyatiga suyanish zaruriyatlarini ochib berish.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ ЦЕНТРОВ В ПРИНЯТИИ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ США)

**Насиба Р. Саноева**

*студент магистратуры*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [nasibasanayeva1511@gmail.com](mailto:nasibasanayeva1511@gmail.com)*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Совет по аналитическим центрам, политическим решениям, международным отношениям

**Аннотация:** Давая общее представление о работе аналитических центров, выделяются положительные и отрицательные стороны решений, подготовленных на основе их материалов. Также изучаются инициативы этих центров по решению важных проблем.

Исследование роли интеллектуальных центров в решении транснациональных проблем, умение видеть цели и злонамеренные намерения, скрытые под каждой порцией информации, изучение вопросов формирования общественного сознания населения под одной идеологией с целью создания иммунитета против дезинформации.

Выявить необходимость опираться на глубокую аналитическую деятельность аналитических центров в вопросах политического и экономического управления.

### KIRISH

Bugungi kunda siyosiy qarorlarning qabul qilinish jarayonlari va amaliyotga tadbiq etilishida eng ma'qul qarorni qabul qilish uchun ishonchli va kafolatli tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan materiallarga talab ortib bormoqda. Xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida jahon

siyosatida o‘zining mustahkam o‘rniga ega bo‘lgan va globallashuv jarayonida o‘z xavfsizligi uchun qayg‘uradigan davlatlar tashqi siyosatida mavjud to‘siqlarga qarshi kurashishda faol ishtirok etuvchi aqliy markazlarning ishlash faoliyatini yurtimizda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir davlat o‘z boshqaruvini amalga oshirar ekan, ichki va tashqi islohotlarni amalga oshirishda fuqarolar bilan yaqindan aloqa o‘rnatishga va ishonchini mustahkamlashga intiladi. Bu borada esa NNTlarning xususan aqliy markazlarning o‘rni muhim sanaladi.

### **ASOSIY QISM**

Yangi siyosiy g‘oyalar ko‘pincha aqliy markazlar mutaxassislaridan chiqadi. Xorijiy mamlakatlarda siyosiy fanlar, menejment hamda ijtimoiy munosabat va aloqalarni ta’minlashga juda katta e’tibor beriladi. Rivojlangan mamlakatlarda bu bilimlar oliy o‘quv yurtlarida keng o‘qitiladi va o‘rganiladi. Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarda siyosiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi maxsus ilmiy-tadqiqot markazlari, institutlar, fond va uyushmalar mavjud.

Aqliy markazlarning jahon siyosatida kuchli pozitsiyaga ega bo‘lib borayotgani va allaqachon beshinchi hokimiyat sifatida tan olingani esa bu borada izlanishlarning dolzarbligini ifodalaydi. Maqolaning AQSh misolida olib borilishini esa mamlakatning bu sohada ancha ilgarilab ketgani bilan izohlanadi.

Siyosatning mohiyati turli ijtimoiy-siyosiy institutlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni amalga oshirish va boshqarishni tashkil etadi. Umuman olganda jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashqi faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida ifoda etadi.

Siyosat tuzilishiga ko‘ra uch turga – ichki, tashqi va xalqaro siyosatga bo‘linadi. Ichki Siyosat – Siyosat subyektlarining mamlakat ichkarisida amalga oshiradigan faoliyatidir. Tashqi Siyosatni ishlab chiqishda esa ko‘p subyekt emas, balki bitta subyekt, ya’ni davlat tashkiloti asosiy rolni o‘ynaydi.

Qaror esa davlat organi yoki mansabdor shaxsning o‘z vakolati doirasida muayyan maqsadga erishish yo‘lida qabul qiladigan va biror oqibat keltirib chiqaradigan hujjat hisoblanadi. Qaror odatda, ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan qabul qilinib, u ana shu organning o‘z vazifalarini amalga oshirish vositalari va yo‘llarini nazarda tutgan boshqaruvga oid erki ifodasi hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirish jarayonida siyosiy qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq amallar yuzasidan tegishli organlar faoliyat olib boradi. Odatda qaror qabul qilinishidan oldin loyihasi tayyorlanib, muhokama qilinadi.

Siyosiy qarorlar qabul qilish - bu mamlakatning siyosiy partiyalari, siyosiy yetakchilari yoki rahbariyatining siyosiy amaliy faoliyat va prinsiplarni maqsad sifatida o‘z oldiga qo‘yib bu

yo‘nalish bo‘yicha ko‘zlangan natijaga erishish uchun printsiplari va yondashuvlaridan kelib chiqib amalga oshirilgan tanlovidir.

Ushbu jarayon milliy va ijtimoiy manfaatlar bilan bog‘liq asosiy va umumiy qarorlarni o‘zida aks ettiradi. Ya’ni davlat organlari sifatida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar, siyosiy partiyalar, qarorni qabul qiluvchi rahbardan tortib, ovoz berishda ishtirok etuvchi vakillargacha umumiy manfaatlarni o‘zlarida aks ettiradilar hamda bu jarayonda ishtirok etadilar. Hamda albatta bu jarayonga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va tizim mavjudligini hatto bosim o‘tkazilishini inkor etib bo‘lmaydi. Bu masalada aqliy markazlarning o‘rni ham salmoqlidir. Tegishlicha shakillangan yakuniy qaror mamlakatning majburlovchi organlari tomonidan amalga oshirilishini taminlash uchun qabul qilinadi. Kuzatish mumkinki qonunchilik uchun berilgan takliflar ko‘plab munozara va baxslardan so‘ng avvalgi ko‘rinishidan farqlanadi yoki qaytariladi. Albatta bir ovozdan ma’qullanib qabul qilinuvchi dolzarb qarorlar ham mavjud. Odatda bunday qaror tabiiy sharoit taqozosi bilan qabul qilinadi, hamda noroziliklarga sabab bo‘lmaydi.

Tashqi siyosat borasida esa bunday deb bo‘lmaydi. Chunki unda majburlov chorralari biror davlat tomonidan emas balki xalqaro huquq normalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, aks holda bu konfliktlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga davlatning o‘z hududidan tashqaridagi manfaatlari yuzasidan qabul qilgan qarorlari ham jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday muammolarga esa turli mamlakatlar va davlatlar o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa yo‘nalishlardagi manfaatlar nomuvoviqligi sababli yuzaga keladigan tashqi siyosiy konfliktlar sifatida ta’rif beriladi.

Hozirgi kunda bunday sohalarga mojarolarni hal qilish va nazorat qilish, saylov va informatsion kampaniyalarni tashkil etish, siyosiy qarorlar qabul qilish, muzokaralar olib borish va boshqa bir qancha sohalar kiradi. Shunday sohalar atrofida siyosiy qarorlar qabul qilishdagi muammolarni yorituvchi (policy making), siyosiy loyihalarni yaratish va amalga oshirish (policy management), siyosiy mojarolarni hal qilish va tartibga solish (conflict management), muzokaralar olib borish va shu kabi turli sohalar ham vujudga keldi. Ularning ichida aniq siyosiy muammolarni o‘rganishning usul va bosqichlarini taklif etuvchi siyosiy tahlil (policy analysis) ajralib turadi. Davlatlarning tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilish va o‘z manfaatlariga tashqi siyosiy konfliktarsiz erishishi mazkur mamlakatning aqliy markazlari boshqacha aytganda strategik tadqiqot markazlarining salohiyatiga bog‘liq.

Davlat boshqaruvini amalga oshirishda, turli sohalardagi qaror, farmonlar va qonunlarda ma’um pozitsiyaga tayaniladi. Davlatning tanlagan bu pozitsiyasi xalqaro ahamiyatga ega va shundan kelib chiqib qanday siyosat olib borish hamda strategiyalarni belgilanadi. Tashqi siyosiy qarorlarini qabul qilish, xalqaro munosabatlar aktorlarining jiddiy hatti harakati sanaladi chunki bugungi murakkab davrda bu ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni shakillantiruvchi muhim

omildir. Shuning uchun ham faoliyat asoslari ichki qonunlar doirasida olib boriladi va ko‘p hollarda mamlakat konstitutsiyasida o‘z ifodasini topadi. Respublikamizda esa bu milliy konstitutsiyamizning birinchi bo‘lim to‘rtinchi bob o‘n yettinchi moddasida 1uyidagicha belgilab qo‘yilgan: O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minalash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

Shu o‘rnida aytish mumkinki Qo‘shma Shtatlardagi ilmiy-tadqiqot markazlarining o‘ziga xosligi, ularning soni ko‘pligidan tashqari, ko‘pchiligi davlat siyosatini ishlab chiqish jarayonida faol ishtirok etganliklaridir. Muxtasar qilib aytganda, Amerikaning ilmiy markazlarini dunyoning boshqa qismidagi markazlaridan ajratib turadigan narsa, ba’zi muassasalarning qanchalik yaxshi moliyalashtirilayotgani emas balki, bu Amerika ilmiy markazlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etish qobiliyati va siyosatchilarining siyosat bo‘yicha maslahat olish uchun murojaat qilishga tayyorligi hisoblanadi. Bulardan tashqari turli tadqiqotchilar yoki siyosiy tadqiqot institutlari, aqliy markazlarning kuchli ta’siri va rollari qaror qabul qilish jarayoniga va hatto siyosiy qarorlarni qabul qilishga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu olimlar, tadqiqotchilar va strategik tadqiqot markazlari odatda Think tanklar deb ataladi va uning qarorlarni qabul qilishdagi roli juda yuqori.

AQSh Davlat departamentining siyosat va rejalashtirish bo‘yicha direktori Richard Xass “AQSh tashqi siyosatini shakllantirishda ta’sir ko‘rsatadigan omillardan eng asosiysi, tahlil markazlarining roli hisoblanadi” deya ta’rif bergen edi. Aqliy markazlarning soni bo‘yicha yetakchi mamlakat sifatida qo‘shma shtatlarini keltirish mumkin. Aqliy markazlar evolutsiyasida o‘ziga xos bosqichlarda shakillangan. Siyosiy tadqiqot institutlari yoki Aqliy markazlarni rivojlanib borishi va moslashuvchanligiga qarab bir necha avlodlarga bo‘lish mumkin. Birinchi avlod Think tanklari Qo‘shma Shtatlardagi tashqi siyosiy aqliy markazlarning birinchi katta to‘lqini sifatida 1900 yillarning boshlarida paydo bo‘la boshladi, bu asosan yetakchi filantropolar va ziyorilarning davlat va xususiy sektorlardagi olimlar va rahbarlar yig‘ilishi mumkin bo‘lgan va dunyo muammolarini muhokama qilish institutlarni yaratish istagi tufayli paydo bo‘ldi. Xusan, uchta institut XX asrning birinchi o‘n yilliklarida o‘zlarining mavjudligini ko‘rsata boshladilar: Pitsburg po‘lat magnati Endryu Karnegi tomonidan asos solingan Karnegi xalqaro tinchlik jamg‘armasi (1910); sobiq prezident Herbert Hoover tomonidan tashkil etilgan Urush, inqilob va tinchlik bo‘yicha Guver instituti (1919); va tashqi aloqalar bo‘yicha kengash (1921), oylik tushlik

klubini tashkillashtirib muhokamalr uyuştiruvchi dunyodagi eng obro'li tashqi ishlar muassasalaridan biriga aylangan institutlar edi. Qolgan ikkita ilmiy markazlar hukumat tadqiqotlari instituti hisoblanib (1916), keyinchalik Brukings institutini (1927), Vashington shtati va boshqa Amerika institutlari bilan birlashdi va Vashingtondagi iqtisodiyotni o'rganish instituti (1943), juda hurmatga sazovor konservativ ilmiy markazlardan bo'lgan, vaqt o'tishi bilan tashqi siyosiy masalalarga katta e'tibor qaratishni boshlaydi

Ikkinchi avlod Aqliy markazlari davlatning pudratchilari sifatida paydo bo'ldi. Ikkinchi Jahon Urushidan so'ng, Amerikalik siyosatchilar uchun tashqi siyosat bo'yicha mustaqil maslahatlarga ehtiyoj yanada kuchaydi. Ikki qutbli dunyoda yakka hukumron kuchga aylanish mas'uliyatining oshishi bilan Vashingtondagi qaror qabul qiluvchilar (rahbariyat) xavfsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi ilmiy markazlardan o'zlarining bilim va tajribalari izchil va puxta milliy xavfsizlik siyosatini ishlab chiqishda yordam talab qildi. 1948 yilga kelib, siyosatchilar asosan xavfsizlik masalalari bo'yicha RAND korporatsiyasiga murojaat qilishdi.

RAND korporatsiyasi 1948 yil may oyida AQShning yadro asri davrida xavfsizlik manfaatlarini ilgari surish va himoya qilish maqsadida tashkil etilgan edi. Tashqi siyosat tadqiqotlari bilan mavjud bo'shliqni to'ldirish bilan bir qatorda, RAND yangi ilmiy markazlarni – hukumat pudratchiligi asosidagi siyosatchilarning aniq muammolarini hal qilishga qaratilgan asosan davlat idoralari va hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan siyosiy tadqiqot institutlarini vujudga keldi. Keyingi yillarda RAND Hudson Instituti (1961) va Urban Instituti (1968) kabi bir qator boshqa davlat pudratchiligi asosidagi institutlarning yaratilishiga sabab bo'ldi.

1948 yilda AQShning Qurolli Kuchlariga tadqiqot va tahlil qilish uchun Duglas aviakompaniyasi tomonidan RAND nodavlat global ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etiladi. Tashkilot xususiy jamg'armalar, korporatsiyalar, universitetlar va jismoniy shaxslar tomonidan moliyalashtirilsada asosiy homiy bu AQSh hukumatining o'zi edi. Chunki harbiy tadqiqotlar uchun eng yaxshi maslahatlarni bera oluvchi va kezi kelganda razvedka ma'lumotlarini to'play oluvchi kuchli markaz kerak edi. Albatta davlat tadqiqot markazidan farqli ravishda xususiy yoki nodavlat tashkilot xizmatidan foydalanish kezi kelganda AQSh uchun pozitsiyaning neytral saqlab qolinishi uchun zarur edi.

RAND mutaxassislari bajarilgan murakkab "Tizimli tahlil" ishi xalqaro siyosatga keng va murakkab ta'sir ko'rsatdi. Ta'sir asosan Havo kuchlarida va harbiy sohani ichidagi tarmoqlarda Strategik havo qo'mondonligida (Strategic Air Command) ko'rindi. AQShning ko'plab neft va boshqa resurslarga boy mamlakatlarga kirib borishi yirik transmilliy korporatsiyalar orqali rivojlanayotgan yoki yuqori texnologiyalarga ega bo'limgan ammo boy zaxiralarga ega mamlakatlarga investitsiya kiritishi, ayrim holarda hatto nazoratni harbiy yo'l bilan ham o'rnatilgani va bu senariylar yirik aqliy markazlarning materiallari asosida amalga oshirilgani

bugungi kunda ko‘pchilikka ma’lum. AQShning Iroqqa, Afg‘onistonga kirishi hamda Venesuellada yuz bergen siyosiy nobarqarorliklar shular jumlasidandir.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Qo‘shma Shtatlardagi ilmiy-tadqiqot markazlarining o‘ziga xosligi, ularning soni ko‘pligidan tashqari, ko‘pchiligi davlat siyosatini ishlab chiqish jarayonida faol ishtirok etganliklaridir. Muxtasar qilib aytganda, Amerikaning ilmiy markazlarini dunyoning boshqa qismidagi markazlaridan ajratib turadigan narsa, ba’zi muassasalarining qanchalik yaxshi moliyalashtirilayotgani emas, balki bu Amerika ilmiy markazlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etish qobiliyati va siyosatchilarining siyosat bo‘yicha maslahat olish uchun murojaat qilishga tayyorligi hisoblanadi. Ba’zi olimlarning fikricha, AQSh ilmiy markazlari davlat siyosatini shakllantirishga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi

Xalqaro nodavlat tashkilotlar transmilliy korporatsiyalar, diniy tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar birgina davlatning milliy chegaralarida emas balki undan tashqaridagi bir qancha subyektlar bilan faoliyat ko‘lamini bog‘laydi. Shu bilan birga ta’siri ham ortib boradi. Jumladan 2001 yil 11 sentyabr hujumlari va Al-Qoidaning dunyo siyosatiga ko‘rsatgan ta’siri uni nodavlat 335orm sifatida tan olinishiga olib keldi. Ya’ni, endilikda faoliyati zo‘ravonlik an’analariga tayanadigan nodavlat ishtirokchilarini (zo‘ravon nodavlat aktorlar) o‘rganish bo‘yicha yangi izlanishlar boshlandi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, zamonaviy texnologiyalar zaif aktorlarga boshqalarga zarar etkazish nuqtai nazaridan kuchli qudratga ega bo‘lish imkonini beradi, bu esa bunday aktorlarning rivojlanishiga yordam beradi. Ularning dunyo siyosatiga ta’sirini kuchaytiradi.

Davlat agar kuchlar o‘yiniga tortilishni istamasa, u o‘z suvereniteti, o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlarga ega. Xalqaro 335orm ava standartlarga qat’iy rioya etmog‘I “tashqaridan biror kimsa” o‘z manfaati yo‘lida mamlakatda buzg‘unchilik olib bormasligi uchun buni nazorat etib bormog‘I lozim

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, aholining siyosiy ongingin o‘sib borishi, savodxonlik darajasining yuksalishi hamda jahonning aksar mamlakatlari demokratik davlatlar ekanligi, xalqaro nohukumat tashkilotlarning faolligi yanada ortishini, umuminsoniy manfaatlarni himoya qiluvchi va o‘z o‘rnida talab qiluvchi kuch sifatida shakillanishini anglatadi. Bunday vaziyatda tahliliy markazlar va nodavlat tashkilotlarning roli yuqori baholanishi tabiiydir. Albatta bunda globallashuvning ahamiyati ham yuqori turuvchi omil sanaladi. Xalqaro nodavlat tashkilotlar xalqaro munosabatlar tizimida alohida o‘rin tutadi va ularda muhim rol o‘ynashda davom etadi. Bu o‘zgarishlar ikkala davlat va nodavlat sub’ektlari darajasida ham teng ahamiyatga ega. Xalqaro

nohukumat tashkilotlarning dunyoda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarga ta’siri tobora kuchayib borishi, ular xalqaro tadqiqotlar markaziga aylanib borishiga olib keladi.

“Global Go-To Think Tank Rankings” ma’lumotlariga ko‘ra 2019 yil dunyoning 169 mamlakatida 7000 dan ortiq ilmiy markazlar mavjud bo‘lib shulardan 1871 ta aqliy markazlar AQShda faoliyat yuritadi, Vashington DC Guide hisobotiga ko‘ra Brukings instituti dunyoning Top 25 aqliy markazlar toifasida doimiy ravishda dunyo bo‘ylab birinchilikni egallab keladi. Ularning qariyb 400tasi Vashington shahrida joylashgan. Biroq Amerika Qo‘shma Shtatlari dunyodagi eng taniqli ilmiy markazlar joylashgan hudud hisoblansa-da, boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham aqliy markazlar juda ko‘p. Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstraliyada, Sharqiylar va G‘arbiy Evropaning aksariyat qismida, Osiyo, Yaqin Sharq va Afrikada so‘nggi yillarda ilmiy markazlar ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda. Xayriya fondlari, korporatsiyalar, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar va siyosiy partiylar tomonidan moliyalashtiriladigan, ilmiy markazlar global ahamiyat kasb eta boshladi va tahliliy materialning asosiy maqsadi milliy darajada siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida yordam berishdir. Shuning uchun tayyorlangan hujjat uning “iste’molchilari” ixtiyorida bo‘ladi. Biroq istemolchilar nafaqat davlat yoki alohida individlar, balki butun jahon hamjamiyati bo‘lishi, yoki yirik tadbirkorlar bo‘lishi mumkin. Misol uchun yechimini talab qilib tobora jiddiyashib borayotgan global harakterdagi muammolar mavjudki bu birgina davlatning emas butun insoniyat oldidagi muammo sanaladi bularga global iqlim o‘zgarishi, energiya zaxiralarining tugash muammosi, demografik muammolar, atrof muhitning ifloslanishi hamda ozon qatlamining yemirilishi qolaversa bugungi pandemiya sharoitining insoniyatga ta’sirlari yuzasidan izlanishlarni talab etadi. Shu sababli ham aqliy markazlar tadqiqot yo‘nalishi hamda tadqiqotchilarning faoliyat doirasidan kelib chiqib milliy va xalqaro darajada faoliyat yurituvchi turlarga ajratilishi mumkin.

Tuzilishi jihatidan davlat va nodavlat (mustaqil) tadqiqot markazlari ham birmuncha murakkabliklarga ega. Ayrim aqliy markazlar hukumatdan mustaqil bo‘lsada asosan hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. Ya’ni hukumatning rasman aloqasi yo‘q ammo donor sifatida pudratchilar uchun ma’lum ta’sirga ega bunday aqliy markazlarga yurtimizdagি Taraqqiyot Strategiyasi Markazini misol qilib keltirish mumkin. Bu kabi markazlar xorijda “Quasi Independent” ta’rifi bilan izohlanadi. Bundan tashqari hukumatning grantlari asosida tashkil etilgan va shartnomaga ega biroq rasman hukumatning bir qismi sifatida tan olinmaydigan yoki universitetlar qoshida tashkil etilgan (siyosiy) tadqiqot markazlari mavjud bo‘lib tor va keng yo‘nalishlarda faoliyat yuritishadi.

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda davlat va hukumat boshlig‘i uchun ichki va tashqi xavfsizlik masalalari bo‘yicha quyidagi axborot etkazib beruvchilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: Tashqi ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati (hozirda DXH), Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi,

Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, AVES, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti ( ISMI), shuningdek, boshqa vazirlik va idoralar. Ushbu manbalarning barchasi dastlabki ma’lumotlarni olish uchun o‘zlarining texnik va boshqa imkoniyatlariga ega. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega, o‘ziga xos professional yo‘naltirilgan xodimlarga ega.

Xulosa o‘rnida barcha rivojlangan mamlakatlarning, mintaqalarning negizida aqliy markazlarning saviyasi muhim rol o‘ynaganini, davlatlarning tashqi manfaatlari ijobiy ravishda ilgari surish masalalari hoh u davlatning aqliy markazi bo‘lsin hoh nodavlat aqliy markazlar bo‘lsin “Think tank”lar faoliyati bilan bog‘liq ekanini ko‘rish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. J. McGann. The Think Tank and Civil Societies Program 2009. The Global “Go-To Think Tanks”. January 12, 2010. Foreign Policy
2. P. Xaac. «Мозговые центры» и американская внешняя политика: точка зрения политика. Внешняя политика США. — 2002. — Т. 7. — № 3.